

## DUNYO MIQIYOSIDA GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR

*Ro'zmetova Bonu Oybek qizi*  
*Urganch Davlat Universiteti. Urganch*  
*Yaqubbayeva Ro'za Ko'palbayevna*  
*Urganch Davlat Universiteti. Urganch*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda insonlarni oldida yuzaga kelgan dunyodagi global ekologik muammolari va ularning kelib chiqish sabablari, shuningdek, bu muammolarni yechimi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** biosfera, faoliyat, ozon qatlami, inson, foydalanish, ekologiya, global muammolar.

Hozirgi vaqtda inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan borayapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V.I.Vernadskiy tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi. Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisa tushuniladi. (iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmoqda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Global (umumbashariy).
2. Regional (mintaqaviy).
3. Lokal (mahalliy).

**Global ekologik muammolar** odamlar va boshqa turlar uchun yashash muhitini davom ettiradigan bo'lsa, ular Yer uchun xavfni anglatadi. Bularga atmosfera va dengizning ifloslanishi, cho'llanish va turlarning yo'q bo'lib ketishi kiradi.

Son-sanoqsiz tabiiy ofatlar, global isish, sovuq davrlar va o'zgaruvchan ob-havo sharoitida odamlar sayyoramiz duch keladigan ekologik muammolarning turlarini ko'proq bilishlari kerak.

Global isish shubhasiz haqiqatga aylandi; sayyoramiz isiydi va bunga odamlar sabab bo'lgan.

Biroq, bu odamlarni tashvishga soladigan yagona ekologik muammo emas. Dunyo bo'ylab odamlar har kuni ko'plab ekologik muammolarga duch kelishmoqda.

XX asrning 50-yillaridan boshlab havoda Freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa 25 km uzoqlikdagi ozon qatlami (ozonosfera) ni yemira boshladi. Natijada "Ozon tuynugi" hosil bo'ldi. Ozon qatlami quyosh nurlari ta'sirida kislorod azod oksidi va boshqa gazlar ishtirokida ya'ni chaqmoq chaqishi momaqaldir, yashinlar natijasida hosil bo'ladi va to'planib boradi. Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimgava yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bo'lib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir qiladi. Ultrabinafsha nurlari ta'sirida nurlanish odamlarda terini kuyishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chiqayotganligi aniqlandi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada etarli miqdorda ozon to'planishiga imkon bermayapti.

Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan texnikaning taraqqiy etishi, insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muommalarning kelib chikishiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik muommo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bo'lik holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bo'lik (stixiyali talofatlar, iklimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshkalar) har qanday xodisa tushuniladi. zon qatlamining siyraklanishi. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va er yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azod oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib, yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlarning ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir etadi. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida nurlanish odamlarda terining kuyishiga olib keladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chikayotganligi aniqlangan.

Hozirgi davrda xlorftormetanlar (freonlar)dan keng foydalanish tufayli hamda azotli o'g'itlar, aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada etarli miqdorda ozon to'planishiga imkon bermayapti. Shuning uchun maishiy turmushda sovutkichlarda ishlatiladigan freondan foydalanishni qisqartirish va yaqin yillarda uni ishlab chiqarishni butunlay to'xtatish ko'zda tutilgan.

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo'lib, u 2,8 % ni tashkil etadi. Chuchuk suv zaxirasi asosan qutblardagi muzliklardir. Shunday qilib hozirgi ekologik muammolarga asosan ozon qatlamining yemirilishi va havoning ifloslanishi misol bo`la oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atamirzaev A., Kayumov A. ekologiya.- Ekonomika va statistikasi
2. O.Mo'minov, L.Baratov "O'zbekiston tabiiy geografiyasi
3. L.A.Alibekov, Nishonov. S.A "Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish"